



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR- MART  
OYLARI**

2023-yilning yanvar-mart oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **984,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar- mart oylariga nisbatan **96,4 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



5,1

20,7

74,2

Yirik qurilish  
tashkilotlari

Norasmiy sektor


Kichik korxona  
va mikrofirmalar



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar- mart oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxona va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Respublikasi	984,8	50,1	730,5	204,2
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>294,5</b>	<b>3,9</b>	<b>284,0</b>	<b>6,6</b>
Amudaryo	56,9		30,9	26,0
Beruniy	66,5		32,8	33,7
Bo'zotov	17,3		14,5	2,8
Qorao'zak	19,6	2,5	13,1	4,0
Kegeyli	17,2	0,7	12,7	3,8
Qo'ng'iroq	52,5	14,7	33,2	4,6
Qonliko'l	18,4		6,2	12,2
Mo'ynoq	46,8	12,5	32,8	1,5
Nukus	54,8		40,1	14,7
Taxiatosh	46,4	3,2	40,1	3,1
Taxtako'pir	24,1	1,8	19,7	2,6
To'rtko'l	122,9	9,8	83,0	30,1
Xo'jayli	33,2		27,8	5,4
Chimboy	37,0		11,4	25,6
Shomanay	10,7		3,4	7,3
Ellikqal'a	66,0	1,0	44,8	20,2

2023- yilning yanvar- mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 50,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 57,8 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,5 % punktga kamayib, 5,1 % ni tashkil etdi.



**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Qo'ng'iroq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 28,0 % i yoki 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 38,2 %), Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 26,7 % yoki 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 82,8 %) va To'rtko'l tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 8,0 % i yoki 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 39,3 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar- mart oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 74,2 % i to‘g‘ri kelib, 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 3,6 % punktga ko‘paygan. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 102,6 % ni tashkil etgan holda 730,5 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da




74,2

2023- yil  
yanvar- mart


70,6

2022- yil  
yanvar- mart



**MA’LUMOT UCHUN:** Joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko‘rsatkichi Nukus shahri (284,0 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmga nisbatan ulushi 96,4 %), To‘rtko‘l tumani (83,0 mlrd. so‘m yoki umumiyligi hajmga nisbatan ulushi 67,5 %), Ellikqal’a tumani (44,8 mlrd. so‘m yoki 67,8 %) ga to‘g‘ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **20,7 %** ni tashkil etdi yoki **204,2 mldr. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **91,5 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **964,6** mldr. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **20,2** mldr. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **2,0 %** va **98,0 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar- mart oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **59,9 %** i yoki **590,0** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**6,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **38,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **6,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **351,8** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi **59,7 %** ni tashkil etdi.

**59,7 %**

**33,9 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **200,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **33,9 %** ni tashkil etdi.



## Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-mart oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	984,8	96,4	100,0
Nukus sh.	294,5	100,7	29,8
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	56,9	100,5	5,8
Beruniy	66,5	105,8	6,8
Bo'zotov	17,3	100,3	1,8
Qorao'zak	19,6	101,3	2,0
Kegeyli	17,2	100,7	1,7
Qo'ng'irot	52,5	70,1	5,3
Qonliko'l	18,4	110,8	1,9
Mo'ynoq	46,8	89,2	4,7
Nukus	54,8	97,5	5,6
Taxiatosh	46,4	89,3	4,7
Taxtako'pir	24,1	101,6	2,4
To'rtko'l	122,9	91,6	12,5
Xo'jayli	33,2	85,8	3,4
Chimboy	37,0	102,4	3,8
Shomanay	10,7	116,9	1,1
Ellikqal'a	66,0	107,0	6,7

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



*Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringin asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

# Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

3,3

2022- yil  
yanvar- mart

3,2

62,5

61,8

34,2

35,0

2023- yil  
yanvar- mart



Yirik qurilish  
tashkilotlari



Kichik korxona  
va mikrofirmalar



Norasmiy  
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 0,1 % punktga kamaygan.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 0,7 % punktga kamayib, 61,8 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 0,8 % punktga ko'payib, 35,0 % ni tashkil etdi.

## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 7,9 % ni tashkil etdi va 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 11,0 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 92,1 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



18,9



7,9

Yirik qurilish tashkilotlari


2022- yil yanvar-mart

Kichik korxona va mikrofirmalar

2023- yil yanvar-mart

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning yanvar- mart oylariga nisbatan 5,4 % punktga kamaydi va 8,0 % ni tashkil etdi. Qolgan, 92,0 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 5,4 % punktga ko'paydi.



# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari

## 2023- yil yanvar- mart oylari

ulushi % da



**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (61) 224-92-14  
(61) 222-75-91**